
O’zbekiston florasining yangi nashri chop etildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti tomonidan "O’zbekiston florasi"ning navbatdagi to’rtinchi jildi chop etildi. O’zbekiston botanika fanida muhim yangilik sifatida e’tirof etilayotgan bu nashr Markaziy Osiyo o’simliklar qoplamida muhim o’rin tutadigan G’ovzabondoshlar (Boraginaceae) oilasining zamonaviy taksonomik tarkibi, nomenklaturasi, botanik-geografiyasi, ekologiyasi va fenologiyasining xususiyatlariga bag’ishlangan. Floraning navbatdagi nashri G’ovzabondoshlar oilasi bo’yicha yirik mutaxasis, professor S.V. Ovchinnikova (Rossiya Fanlar akademiyasi, Markaziy Sibir botanika bog’i, Novosibirsk shahri) bilan hamkorlik natijasi hisoblanadi.



Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi 2018–2022-yillarda olib borilgan dala izlanishlari natijalari, O’zbekiston Milliy gerbariysi (TASH, Toshkent, O’zbekiston), V.L. Komarov nomidagi Rossiya Fanlar akademiyasi Botanika instituti (LE, Sankt-Peterburg, Rossiya), Moskva davlat universiteti Biologiya fakulteti (MW, Moskva, Rossiya), Tojikiston Milliy akademiyasining Botanika, fiziologiya va o’simliklar genetikasi instituti (TAD, Dushanbe, Tojikiston), Rossiya Fanlar akademiyasi Markaziy Sibir botanika bog’i (NS, NSK, Novosibirsk, Rossiya), Tomsk davlat universiteti (TK, Tomsk, Rossiya), Muséum National dHistoire Naturelle (P, Parij, Fransiya), Conservatoire et Jardin bota-niques de la ville de Genève (G, Jeneva, Shveytsariya) gerbariylari, shuningdek, JSTOR (https://www.jstor.org/) xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bir qator virtual kollektsiyalarda saqlanayotgan gerbariy namunalarni tanqidiy o’rganishga asoslangan. O’zbekiston florasining yangi jildlarini yaratishga qartilgan bu loyihaning muqobillaridan eng muhim farqli jihatlaridan biri turlar kesimida bir asrdan ortiq muddat davomida to’plangan geografik ma’lumotlarning to’la tahlili va ularning asosida geoaxborot tizimida (GAT) yaratilgan xaritalar hisoblanadi. GAT xaritalar Botanika instituti xodimlari (N.Yu.Beshko, I.J.Juramurodov, U.X. Qodirov, G.T.Kurbaniyazova, S.A.Pulatov, D.M.Tajetdinova va O.A.Turdiboyev) tomonidan yaratilgan.

O’zbekiston florasidagi G’ovzabondoshlar oilasi vakillarining keng ko’lamli tahlili Markaziy Osiyo florasining yirik bilimdoni hisoblangan M.G.Popovning o’simliklar taksonomiyasi va biogeografiyasidagi klassik g’oyalariga asoslangan. Oila tarkibidagi turlarga boy bo’lgan turkumlarni Lappula (Rochelia bilan birgalikda) va Cynoglossum tashkil etadi. Bu taksonomik guruhlar Markaziy Osiyoda turlar xilma-xilligining muhim markazlariga ega hisoblanadi.

Tadqiqot uchun jalb etilgan ma’lumotlar ko’lamining kengligi va olib borilgan tahlillarning chuqurligi yangi nashrda keltirilayotgan ilmiy yangiliklarning salmog’ini belgilaydi. Bir qator turlar O’zbekiston florasi uchun ilk bor keltirilmoqda, floraning yangi jildini nashrga tayyorlash jarayonida yuqorida sanab o’tilgan gerbariy fondlarida saqlanayotgan tip namunalarining nomeklaturaviy tahlillari bir necha ilmiy jurnallarda chop etilgan. Ilgari bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ko’pligiga qaramasdan O’zbekiston florasining bu nashrida 25 dan ortiq lektotiplar va bitta seksiya darajasidagi yangi nom e’lon qilingan.